

EPISTOLYARLIK VA UNING BADIY ADABIYOT BILAN BOG'LIQLIGI**Xolmatova Nigina Abdusamad qizi****Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti, magistrant****E-pochta: niginafayzullaeva4@gmail.com****+998904001026****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17533764>**

Adabiyotshunoslikda epistolyarlik yoki epistolyar adabiyot – yunon tilidagi “epistole” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, maktub, xat, kundalik shaklida yoziladigan adabiy asarlar va xatlar majmuasini anglatuvchi maxsus adabiy janrdir. Bu atama ikki asosiy maʼnoda qoʻllaniladi: 1. Badiiy adabiyot janri sifatida – maktub shaklida yaratilgan badiiy asarlar (epistolyar roman, sheʼriy maktublar, falsafiy maktublar va boshqalar). 2. Ijodkorlarning haqiqiy xatlari va maktublari – adiblar, shoirlar, olimlar, sanʼatkorlar va boshqa ijod ahli tomonidan yozilgan shaxsiy va rasmiy yozishmalar.

Maktub shaklidagi badiiy asarlar insoniyat tarixining deyarli barcha davrlarida yaratilgan boʻlib, davrlar oʻtishi bilan bu janr turli koʻrinishlarda taraqqiy etib kelmoqda. Epistolyar janr faqat badiiy adabiyot bilan emas, balki tarix, falsafa, publitsistika, esseistika va hatto ilmiy adabiyot bilan ham chambarchas bogʻliq hodisadir. Ushbu bob epistolyarlik (maktub janri) va uning badiiy adabiyot bilan aloqalarini tadqiq etishga bagʻishlangan. Unda maktub janrining tarixiy taraqqiyoti, uning badiiy adabiyot bilan bogʻliqligi, badiiy-estetik xususiyatlari hamda zamonaviy adabiyotshunoslikda tutgan oʻrni tahlil qilingan. Shuningdek, epistolyar janrning turli adabiy yoʻnalishlarga taʼsiri, milliy va jahon adabiyotidagi oʻziga xos namoyandalari va ularning ijodi chuqur oʻrganilgan.

Hozirgi zamon adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri epistolyar janrning badiiy adabiyotdagi oʻrni va ahamiyatini aniqlashdir. Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraganda, epistolyarlik nafaqat alohida shaxslar oʻrtasidagi muloqot vositasi, balki badiiy-estetik qimmatga ega boʻlgan adabiy hodisa hamdir. “Epistolyar asar yoki yozma adabiyot adabiy ijodning eng noyob va samimiy shakllaridan biridir. Bu janr muallifga oʻz fikrlari, his-tuygʻulari va gʻoyalarini yozish orqali ifodalash imkonini beradi”¹. Epistolyar adabiyot haqiqatan ham inson botin kechinmalarini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Ushbu janr orqali mualliflar oʻzlarining eng chuqur his-tuygʻulari, oʻylari va kechinmalarini samimiy tarzda ifodalash imkoniga ega boʻlishadi. Epistolyarlik va maktublar haqida turli olimlar oʻz qarashlarini bildirib oʻtganlar. Jumladan, G.P. Makogonenko: “Epistolyar adabiyot – bu nafaqat shaxsiy muloqot, balki adabiy ijod shakli ham boʻlib, unda muallifning adabiy mahorati namoyon boʻladi”² deya yozadi. V.V. Vinogradov esa xatlarni nafaqat tarixiy manba, balki “adabiy fakt” sifatida baholaydi va ularda muallif uslubi, dunyoqarashi, shaxsiy xususiyatlari namoyon boʻlishini taʼkidlaydi. Shuningdek, epistolyarlik adabiyotini oʻrganish borasida Y.M. Lotman epistolyar janrni muloqotning alohida shakli sifatida talqin qilib, uni adabiyotning rivojlanishidagi muhim omil deb hisoblaydi. Epistolyar asarlar koʻpincha turli personajlarning maktublaridan tashkil topgan boʻlib, voqealarni turli tomonlama koʻrsatadi. Bu esa hikoyaga yanada haqiqatga yaqinlik va murakkablik bagʻishlaydi. Rus va sovet tilshunosi va leksikologiya

¹ Dustmurotov Q. “Epistolyar asarlardagi ziddiyatli uygʻunlik”, “Ekonomika i sotsium”-2024.

² Makogonenko G.P. “XVIII asr rus yozuvchilarining maktublari”, 1986, 112-bet.

bo'yicha maxsus mutaxassisi L.V.Shcherba: "Xatlar til taraqqiyotini o'rganish uchun bebaho material bo'lib xizmat qiladi, chunki ular ko'pincha jonli nutqni va tilning rivojlanish tendentsiyalarini aks ettiradi"³ deya xatlarning nafaqat adabiyot, balki, tilshunoslikagi o'rnining ham muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, epistolyar uslubni oraliq (ya'ni o'rtacha) uslub deya hisoblaydi, chunki u yozma nutqning rasmiy va badiiy uslublari doirasida mavjud bo'lgan shakl sifatida namoyon bo'ladi. A.I.Yefimov esa L.V.Shcherbaning fikrini aniqlashtirgan holda, epistolyar uslubning "ijtimoiy munosabatlarga qarab turlicha variantlari mavjud"ligini ta'kidlaydi⁴. Yu.A.Belchikov esa epistolyar uslubni og'zaki nutqning yozma shakldagi ifodasi, deb hisoblaydi⁵. Rus faylasufi va adabiyotshunosi, til falsafasi, etika va adabiyot nazariyotchisi Mixail Baxtin ham epistolyar janr haqida fikrlarini bildirib, quyidagicha yozadi: "Epistolyar janr - bu dialogik nutqning o'ziga xos shaklidir. U doimo adresatga yo'naltirilgan bo'lib, muloqotning alohida tipini tashkil etadi"⁶.

Demak, epistolyar janr o'quvchiga qahramonlarning fikr, his-tuyg'u va ichki kurashlarini to'g'ridan-to'g'ri yetkazib, an'anaviy uchinchi shaxs hikoyalariga nisbatan yaqinlik va haqiqat hissini kuchaytiradi. Maktublar orqali voqealar individual psixologiya va subektiv tajribalar nuqtai nazaridan chuqurroq o'rganiladi. Ushbu shakl voqealarni bevosita personajlarning o'z ovozlari orqali so'zlashini ta'minlab, hikoyaning shaxsiy va subektiv ko'rinishini yaratadi. Epistolyar shakldagi asarlarda voqealar ko'pincha birinchi shaxs tilida, ya'ni maktub yoki kundalik egasining o'z og'zi bilan hikoya qilinadi. Har bir maktub yoki yozuv muallifining o'ziga xos ovozi, dunyoqarashi va hissiyoti borligi sababli, hikoya ko'p qatlamli va murakkab bo'lib chiqadi. Maktublar hikoya ichidagi "haqiqiy" hujjatlar sifatida taqdim etilgani uchun, o'quvchi uchun voqealar yanada ishonarli va jonli tuyuladi, bu esa o'quvchi va matn o'rtasida kuchli emotsional bog'liqlikni hosil qiladi. Bunday fragmentar tuzilma syujetda sir, ziddiyat va kutilmagan burilishlar hosil qiladi. Shuningdek, asarning ta'sirchanligi ortadi.

Epistolyar matnlar klassik maktub yozish an'alaridan kelib chiqqan holda, so'z o'yinlari, kinoya, istehzo va turli madaniy ishoralardan faol foydalanadi. Epistolyar asarlar ko'pincha zamonaviy voqelik, tarixiy kontekst yoki madaniy kodlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu shakl nafaqat shaxsiy fikrlarni ifodalash uchun, balki tarixiy voqealar yoki jamiyatdagi muammolarni tanqid qilish vositasi sifatida ham ishlatilgan. Masalan, qadimgi va yangi davr adabiyotida maktublar orqali siyosiy va ijtimoiy masalalar ko'tarilgan.

Epistolyar janr zamonaviy psixologik romanlarning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Uning o'ziga xos tuzilishi mualliflarga shaxsiy tajriba va ichki dunyoni batafsil ochish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu janr shaxsiy ifoda va keng jamoatchilik fikrini uyg'unlashtirishda ko'prik vazifasini bajaradi. Maktub shaklidagi romanlar afzalligi shundaki, ular qahramonning fikr va his-tuyg'ularini muallif aralashuvisiz bevosita taqdim etadi va voqealar rivojini jonli tarzda namoyish etadi. Shuningdek, turli nuqtai nazarlarning taqdim etilishi hikoyaga chuqurlik va haqiqatga yaqinlik beradi. Bu esa syujetga murakkablik, ko'p qirralilik va hayotiylik bag'ishlaydi. Masalan, Bram Stokerning "Drakula" romani epistolyar (maktub

³ Shcherba L.V. "Tilshunoslik ocherklar", 1965, 87-bet.

⁴ Ефимов, А. И. Стилистика художественной речи / А. И. Ефимов. – М., 1957.

⁵ Бельчиков, Ю. А. Литературный язык / Ю. А. Бельчиков // Русский язык: энциклопедия / под ред. Ф. П. Филина. – М.: Сов. энцикл., 1979.

⁶ Baxtin M.M. "So'z san'ati estetikasi", – M.: 1979, – B. 241.

shaklida) uslubda yozilgan bo'lib, voqealar turli personajlarning maktublari, kundaliklari va boshqa yozma hujjatlari orqali bayon etiladi. Bu uslub qahramonlarning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini va psixologik holatini chuqur ochib beradi. Har bir hikoyachi o'z nuqtai nazaridan voqealarni tasvirlab, hikoyaga ko'p qirrali va murakkab tuzilma beradi. Bu uslub voqealarning realizmi va psixologik chuqurligini oshiradi, o'quvchiga qahramonlarning ichki kechinmalarini yaqinroq his qilish imkonini beradi. Romanda inson va yovuzlik, hayot va o'lim, sevgi va dahshat kabi qarama-qarshi tushunchalar o'rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Drakula obrazida insonning ichki qorong'u tomonlari, shuningdek, jamiyatdagi zulm va qo'rquv ramziy ifoda topadi.

Badiiy adabiyot insonning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsuli sifatida turli shakl va uslublarda o'z ifodasini topadi. Epistolyar janr esa bu ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Badiiy asarlarda epistolyar shakl turli ko'rinishlarda qo'llaniladi: ba'zan asar to'liq xatlar shaklida yozilsa, ba'zan personajlar o'rtasidagi xat almashinuvi asarning bir qismini tashkil etadi. Epistolyar janr namunalarini maktub mualliflari soniga ko'ra 3 guruhga ajratishimiz mumkin:

- Asar to'liqligicha bir qahramon tomonidan yozilgan maktublardan tashkil topgan bo'lsa – *monologik epistolyar shakl*;
- asar ikki personajlarning bir-biriga yozgan xat-maktublaridan tashkil topgan bo'lsa – *diologik epistolyar shakl*;
- agar asarda ikki va undan ortiq kishilarning bir-biriga yozgan maktublaridan iborat bo'lsa – *polilogik epistolyar shakl* namunasi kabilar.

Monologik epistolyar shaklda yozilgan asarlar sirasiga Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” asari misol bo'ladi. Ushbu asar to'liqligicha Verterning do'stiga yozgan maktublaridan tashkil topgan. F.M.Dostoyevskiyning “Kambag'allar” asari esa diologik epistolyar shaklda yozilgan. Asar Makar Devushkin va Varvara Dobroselovanning bir-birlariga yo'llagan maktublaridan tashkil topgan. Shuningdek, Xurshid Do'stmuhammadning “Uch izhor”ning birinchi izhori “Hijronim mingdur mening” qissasi ham ushbu shakl namunasi hisoblanib, unda ikki sevishtan qalbning dil izhorlari xatlar orqali ifodalangan. Ikkinchi izhor hisoblanmish “Men – sensiz, sen – mensiz” qissasi ham mantiqan qaralganda oshiq-ma'shuqaning maktublaridan tashkil topgan bo'lsada, unda aniq maktub muallifi, unga tegishli bo'lgan maktub alohida ajatilib, ism bilan muhrlanmaganligi, qabul qiluvchining ham javob maktublarini ajratib olish mushkilligi sabablaridan ushbu qissani monologik epistolyar shakl namunasi deyishimiz mumkin. Polilogik epistolyar shakl namunalari qatoriga Bram Stokerning “Drakula”, Samuel Richardsonning “Pamela” (1740) va “Klarissa yoxud yosh xonimning tarixi” (1748) romanlari misol bo'ladi⁷. Ushbu shaklda yozilgan asar tuzilishi hikoyaning subektivligini va ko'p ovozliligini oshiradi.

Epistolyarlik, ya'ni xat yozish an'anasi va uning badiiy adabiyot bilan bog'liqligi masalasi nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik fanlarida ham muhim o'rin tutadi. Ushbu adabiy shakl asarlarning badiiy kompozitsiyasi, obrazlar tizimini ochib berishda va muayyan davrga xos lingvistik xususiyatlarni o'rganishda muhim vosita ham hisoblanadi. Xat yozish an'anasining badiiy adabiyotdagi ifodalanishi dialog xarakteriga ega bo'lib, yozuvchi va

⁷ . <https://www.britannica.com/topic/Pamela-novel-by-Richardson>

o'quvchi, muallif va kitobxon o'rtasida o'ziga xos muloqot shaklini yaratadi. Epistolyarlik badiiy adabiyotning o'ziga xos obrazli tilini, individual muallif uslubini va muayyan davr adabiy tilini anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

